O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY KITOB PALATASI

*Vatan yagonadir, Vatan bittadir!*

# Tong YULDUZI

*O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi*

*Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan* ISSN – 2010-6092

**2009-yil 16-fevral N:7 (66704)**

## DUSHANBADAN

### SAROYDA TENNIS MARKAZI

Andijondagi o'quv dargohlarida 1200 dan ortiq sport seksiyalari faoliyat yuritadi. Bu raqam kundan-kunga ortib bormoqda. Yaqinda viloyat o'quvchilar saroyida tennis markazi ish boshlagani buning yaqqol misolidir. Unda 200 dan ziyod qizlar bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazadilar.

### SOLIQLAR NIMALARGA SARFLANADI?

Soliqlar nimalarga to'lanishi-yu sarflanishini respublikamiz o'quvchilariga yana bir bor eslatib o'tildi.

Toshkent soliq kollejida bo'lib o'tgan «Soliq bilimlari – bolalarga» mavzusidagi ko'rik-tanlovning Respublika bosqichida o'quvchilar bu boradagi bilimlarini sinovdan o'tkazdilar.

## KOMILAXON

### «Yangi avlod – 2008» bolalar ijodiyoti festivali g'olibi




## DUSHANBAGACHA

**Komilaxon Maqsudxo'jayeva Mirzo Ulug'bek tumanidagi 50-maktabning 6-«B» sinfida a'lo baholarga o'qiydi. Shu bilan birga, Hamza nomidagi Respublika kollejida musiqadan saboq oladi.**

**Komilaxon haqidagi maqolani keyingi sonda o'qiysiz.**

# HAR BAYTI BIR KITOB



Respublikamizning barcha go‘shalarida bo‘lgani kabi bizning maktabimizda ham ayni kunlarda buyuk bobokalonlarimiz Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludiga bag‘ishlangan «G‘azalxon yoshligim» nomli tadbir bo‘lib o‘tdi. Unda maktabimizning barcha o‘quvchilari ishtirok etishdi. 1-9-sinf o‘quvchilari Navoiy g‘azallaridan hamda Bobur asarlaridan yod olishdi, sahna ko‘rinishlari namoyish etishdi.

O‘quvchilarimizning ajdodlari haqidagi bilimlarini yana-da boyitish maqsadida, Alisher Navoiy nomidagi adabiyot va san’at muzeyiga sayohatga olib bordik. U yerda Navoiy asarlariga M.M.Voronskiy tayyorlagan miniatyura asarlaridan nusxalar, sopol idishlarga ishlangan rasmlar, misdan o‘yib ishlangan bobomiz tasvirlarini, gilamlarda aks ettirgan Navoiy va Bobur siymolarini katta qiziqish bilan tomosha qilishdi.



Bobolarimizning har bir bayti bir kitob ekanligiga yana bir bor amin bo‘lib qaytishdi.

***Gulchehra MIRBOBOYEVA,***
***poytaxtdagi 132-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi***

# BOBOLARIM SIYMOSI



Salom qadrdonim «Tong yulduzi»! Men ham sening muxlislaringdanman. Sahifalaringda berib borilayotgan tasviriy san’atga ixlosmand tengdoshlarim ijodini katta qiziqish bilan kuzatib boraman. Men ham anchadan buyon rasm chizishni mashq qilaman. Buyuk bobokalonlarimiz tavallud kunlari arafasida ularning nurli siymolarini aks ettirishga harakat qildim. Chizgan rasmlarim sahifalaringda e’lon qilinsa-yu, tengdoshlarim ijodimga baho berishsa, degan umiddaman.

***Karomat XO‘JAAHMATOVA,***
***Jizzax viloyati, G‘allaorol tumanidagi 29-umumiy o‘rta ta’lim maktabining 7-«A» sinf o‘quvchisi***

# Topishmoqlar

Ko‘kka chiqdi yetti xil bo‘yoq,
Qizil, sariq, pushti, biri oq.
Yana biri moviy, olovrang,
Ranglar jilvasiga bir qarang!
Qani, ayt-chi, Avazjon,
Shoshilma, o‘yla obdon.
Topolmay bo‘lma halak,
Uning nomi...

***Shohida JALILOVA***

# KO‘ZLARINGNI YUMGIL, NIGORA!



Avtobus har galgidek tirband. Ertalab hamma har tomon oshiqadi. Haydovchining: «O‘rta bo‘sh-ku», degan ovozi tinmaydi.

Men o‘rtada bir oyoqda turibman. Yonimda yoshi yetmishni qoralab qolgan otaxon. O‘rindiqlarda bugun negadir ko‘proq yoshlar o‘tirishibdi. Ular bizga e’tibor ham qilishmaydi. Mashina oynasidan shahar ko‘chalarini tomosha qilib ketaverishadi. Nogoh yonma-yon o‘tirgan qizchalardan birining tinchi buziladi. Uning ko‘zi tepasida tik turgan otaxonga tushadi. Yonida o‘tirgan qizchaga nimanidir shipshiydi. Dugonasi quvnoqroq qiz ekan shekilli, ovozini ko‘taribroq gapiradi: – Ko‘zlaringni yumgil, Nigora!

Ikkala qiz ham ko‘zlarini chirt yumib olishadi. Endi ular shahar ko‘chalarini ham, terga botib qolgan otaxonni ham ko‘rmas edilar. Avtobus beshik yanglig‘ ularni tebratib borardi...

***AXTAMQULI***

# XATINGIZNI HAMMA O‘QIYDI



Ha, ha, sizning xatingizni respublikamizdagi bolalar o‘qishadi. «Men ham do‘stlarim bilan maktub yozgan edim», deysizmi? Barakalla, endi xatingizni qanchadan-qancha tengdoshlaringiz o‘qishadigan bo‘lishdi. Siz esa ularnikini bir o‘qib chiqing, ajoyib do‘stlar davrasida chaqchaqlashganday bo‘lasiz! Kezi kelganda aytib qo‘yay, bu yilning qishlog‘ingiz taraqqiyoti va farovonligiga bag‘ishlanganligi munosabati bilan xatlaringizda qishlog‘ingizdagi yangiliklar haqida ham yozib turing!

Shunday qilib, keling, xatlarni o‘qishni boshlaymiz...

Andijon viloyati, Izboskan tumanida yashovchi tengdoshingiz Ortiqali Yusubjonov rasm chizishni juda yaxshi ko‘rar ekan. Bizga yo‘llagan rasmini bir ko‘ring-a!





Unga o‘xshab chizgan rasmini yuborgan o‘quvchilar ko‘p. Javlonbek Alijonov ulardan biri. U Farg‘ona viloyati, Oltiariq tumanidan xat yo‘llab, kumush qishni tasvirlagan rasmini yuboribdi. Samarqandlik Marjona Ahmedova hayvonot olamini chizishni ma’qul ko‘ribdi. Dilfuza Norberdiyeva Navoiy viloyati, Zarafshon tumanidan xat yo‘llab, yomon illatlarga qarshi kurashish maqsadida chizgan rasmini yuboribdi.



Tengdoshlarim faqat rasm yo‘llashibdi, deb o‘ylamang. Surxondaryo viloyati, Boysun tumanidagi 3-maktab o‘quvchisi Zarina Suvonova bizga ajoyib hikoyalar yozib yuboribdi. Keyingi sonlarimizda uning hikoyasini o‘qishingiz mumkin. Behruz Avezov esa kichik ertaklar yozib turar ekan. U Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi 9-maktabning a’lochi o‘quvchilaridan emish.

Bilasizmi, poytaxtda yashaydigan tengdoshlaringiz ham xat yozishadi?! Masalan, Mohira Rajabova Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumanidagi 142-maktabning 4-sinf o‘quvchisi. U hali boshlang‘ich sinfni ham tugatmagan Mohira she’r yozar, rasmlar chizar ekan. Biz ana shunday qiziquvchan barcha o‘quvchilarimizga barakalla, deymiz. Xatingizning so‘nggida «Javobini kutaman», deb yozganingizday, biz sizga javob yozdik. Endi yana bizga xat yozing!



***SAYYORA***

## TOPISHMOQLAR

Yetti yoshdan bolalar
U dargohga borishar.
Ilk kunda sovg‘a olib,
Keyin bilim olishar.
Bilmaganin o‘rgatar,
To‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatar.
Bilimlarning o‘chog‘i,
Qani, do‘stim, toping-chi: bu...



* * *



Sahifasi rang-barang,
Suratiga bir qarang.
Bilim koni deymiz uni,
Tezroq toping,
Umi?...

***Diyora JO‘RAYEVA,***
***260-maktabning 5-«A» sinf o‘quvchisi***

## MENING BIR KUNIM



*257-maktabning 7-«A» sinf o‘quvchisi Diana Qodirova o‘zining maqolasini «Mening bir kunim» deb nomlabdi. Dianaga maktab direktori hamda sinf rahbari tomonidan berilgan tavsifnoma bilan tanishar ekanmiz, uning sinfkom ekanligini, sinfdoshlariga doimo hurmat bilan qarashini bilib oldik. Diana nafaqat sinfda, balki maktabda o‘tkaziladigan tadbirlarda ham faol ishtirok etar ekan. A’lochi, jamoatchi, do‘stlariga hamisha yordamga tayyor Dianaxonning kun tartibi qanday ekan?*

– Erta tongdanoq, avvalo yaxshi kayfiyatda bo‘lishga harakat qilaman. Bugungi kunim kechagidan ham yaxshiroq o‘tishiga ishonaman. Bu ishonch meni faqat yaxshi ishlarga, a’lo o‘qishga undaydi.

Har galgidek sinfdoshlarim meni ochiq chehra bilan kutib olishdi. Yetti soat darsimiz biz kutgandan ham qoniqarli o‘tdi. Soat 16.00 da men sevgan ko‘rsatuv. Shuning uchun o‘sha vaqtgacha uy ishlarimga ham ulgurishim kerak.

So‘ngra, darslarimni tayyorlayman. Ingliz tili bilan alohida shug‘ullanaman. Kechki mazali taomdan so‘ng, qo‘shimcha darslarimni bajarib, badiiy kitob o‘qiyman, televizor ko‘raman, xullas, o‘zimga yoqqan ish bilan shug‘ullanaman. Bu mening oddiygina kunim.

***Siz-chi, aziz tengdoshlar, kun tartibini qanday rejalashtirgansiz?***



## Mening o‘quvchim



«Yilning eng yaxshi fan o‘qituvchisi» respublika ko‘rik-tanlovining g‘olibi Mahbuba opa Salomova o‘quvchilarga tarix fanini o‘rgatishda katta muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Uning noan’anaviy dars ishlanmalari shahar o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma sifatida ommalashtirilgan. Iqtidorli shogirdi Sanjar Tursunboyev «Prezident asarlarini bilasizmi?» respublika ko‘rik-tanlovining g‘olibi bo‘lishi 235-maktab jamoasini shodlantirib yubordi. O‘shanda Mahbuba opa iftixor bilan: «Mening o‘quvchim-da», deya quvongan bo‘lsa, ne ajab!?







## Nashrga tayyorlaganlar:

*To‘lqin HAYIT,*
*Feruza JALILOVA,*
*Ma’suda ODILOVA,*
*Mavjuda ALIMOVA,*
*Feruza ODILOVA,*
*Ahtamqul KARIM,*
*Yusuf FAYZULLO,*
*Nargiza ABDULLAYEVA,*
*Zuhra MUHSIMOVA,*
*Fazliddin SHOYODGOROV.*

***Ushbu kitobchani tayyorlashda yaqindan ko‘mak berganlari uchun Yunusobod tuman hokimligi, tuman xalq ta’limi bo‘limi rahbarlariga o‘z minnatdorchiligimizni bildiramiz.***

**«Tong yulduzi»**
**Toshkent – 2009**







«Tong yulduzi» – 2009



*Yunusobod tumani poytaxtimizning eng chiroyli, obod, ozoda tumanlaridan hisoblanadi. Tumanimizdagi ajoyib bog'lar, ko'priklar, baland va ko'rkam imoratlar, teleminora inshoati, banklar, mehmonxonalar majmualari shahrimiz ko'rkiga ko'rk qo'shib turadi.*

*Yunusobod tuman xalq ta'limi bo'limi olib borayotgan ta'lim-tarbiya ishlari bo'yicha respublika miqyosida II o'rinda turadi.*

*Tuman o'quvchilari shahar, respublika Olimpiadalarida o'n yildan buyon I o'rinni egallab kelmoqda.*

*Tuman xalq ta'limi bo'limi tasarrufida 41 ta maktab, 64 ta maktabgacha ta'lim muassasalari, 2 ta bolalar «Mehribonlik uy»lari, 1 ta yordamchi maktab, 3 ta bolalar musiqa maktabi, 1ta o'quvchilar ijodiyoti markazi, 1 ta o'quvchi yoshlar texnik ijodiyoti markazi faoliyat ko'rsatadi.*

*Ushbu ta'lim muassasalarida 40986 nafar o'quvchi ta'lim oladi.*



## TENGDOSHLARING IJODI



*Aziza ZOHIDOVA, 5-maktabning 8-«G» sinf o'quvchisi*



*Assol BAHROMOVA, 43-maktabning 2-«G» sinf o'quvchisi*



*Omonbeka IMOMOVA, 17-maktabning 4-«D» sinf o'quvchisi*



*Edvard BAGDASARYAN, 43-maktabning 2-«G» sinf o'quvchisi*



## Do'stlar



Bor ekan-da, yo'q ekan. Uzoq emas, yaqinda bir o'rmon bo'lgan ekan. O'rmon juda chiroyli bo'lib, u yerda odamning yashagisi kelar ekan. O'rmondagi barcha hayvonlar bir-biri bilan judayam inoq ekan. Olmaxon tipratikan bilan, bo'ri tulki bilan, ayiq quyon bilan do'st ekanlar. Olmaxon bilan tipratikanning bitta-yu bitta bolalari bor ekan. Tipratikan ovqat qidirishga ketsa, olmaxon uning bolasiga qarab turar ekan. Olmaxon ovqat qidirishga ketsa, tipratikan uning bolasiga qarab turar ekan. Do'stlar bir-biriga yordam berib yashashar ekan.

Bir kuni ularning uyiga tulki kelib, qo'rqitibdi. Olmaxon rosa qo'rqibdi. Tipratikan: «Qo'rqma! Biz birga bo'lsak, tulkini yengishimiz aniq», debdi.

*Ertak*

## Maqtanchoq quyon

Kunlardan bir kun quyon o'ziga yangi uy quribdi va tulkini ziyofatga chaqiribdi. Ziyofatda quyon tulkiga maqtanibdi. «Men hech kimdan qo'rqmayman, hatto sendan ham». Tulki bu gaplarni eshitib, juda g'azablanibdi va quyonni yeb qo'yibdi.

Qissadan hissa shuki: maqtanchoqlik yomon odat.

***Dilsora O'TKUROVA,***
***313-maktabning 4-«G» sinf o'quvchisi***

## «Bunyodkor avlod bog'i»



O'tgan yili poytaxt maktablari orasida xayrli ishga qo'l urildi. Har bir maktab o'ziga ajratilgan hududda obodonchilik ishlarini amalga oshirib, bog'lar, sport maydonchalari barpo qilishga astoydil bel bog'lashdi.



## ONAJONIM



Dunyoda eng ulug' zot–
Bu mening onam.
So'zlagan so'zlarida
Ma'no bir olam.
Oftob deysiz ko'rsangiz,
Onam yuzlarin.

Mehr bulog'i deysiz,
Munis ko'zlarin.
Dunyodagi gullarni
Taqdim etsam oz.
Gulga qo'shib mehrimni,
Etay poyondoz.

***Dildora BAHODIROVA,***
***274-maktab***

## BOBUR BOBOMGA



Bitiklarim sizga bo'lsin qalb ehtiromim,
E'zozlaymiz sizni mudom, aziz bobojon.
Andijonim faxrlanar sizdek farzand-la,
Qo'llab tursin bizlarni ruhingiz har on.

Tun sukunat, yog'ayotir yomg'ir shivalab,
Xayollarim olib ketdi o'tmish qariga.
Hozirgina o'qib chiqib Bobur Mirzoni,
Ketolmayin qoldim undan nariga.

Hamisha jonkuyar bo'ldingiz elga,
Sizdagi sadoqat o'rnakdir bizga.
Har bir satringiz muhrlab dilga,
Shu yozgan sherimni atadim sizga.

Izdoshingiz bo'lgim kelar, bobojon sizning,
Sizdek kuylay olsam edi Vatan madhini.
Siymoingiz asrab yurgim qalbim to'rida,
Orzularim mustahkamlar yurak ahdini.

***Lobar QUVONOVA,***
***250-maktabning***
***9-«A» sinf o'quvchisi***

## SEHRLI DARS



Har bir o‘quvchining sevimli fani bo‘lganidek, men adabiyot fanini juda yoqtiraman. Yaqinda biz ilk marotaba mumtoz she’riyat bilan kengroq tanishib, aruz vaznini o‘rgandik. «Bilimdonlar bellashuvi»da men Nodirabegim timsolini yaratdim. O‘zbek xalqining ardoqli shoirasi timsolini jonlantirish qiyin bo‘lgani sababli, ozgina hayajonlandim. Sahna ko‘rinishi uchun eng yuqori ball olganimda esa qalbimni faxr tuyg‘usi qamrab oldi.

*Nargiza MIRYOQUBOVA,*
*14 yosh*

## SOG‘INGANIMNI BILASANMI?!



Bahorjon, seni qanchalik sog‘inganimni bilasanmi?! O‘lkamizga kirib kelishing bilan tabiat uyg‘onadi, kunlar isiy boshlaydi. Ilk darakchilaring boychechaklar qor ostidan bosh ko‘tarib, o‘z ifori, latofati bilan sekin-asta bo‘y cho‘zadi. O‘riklarning gullayotgani, olam yasharayotganini ko‘rib, ko‘ngillar orom oladi.

Ana shunday go‘zal pallada butun borliqni ko‘klam tonggi bilan qutlagim keladi.

Xush kelibsan, yurtimga Bahor!

*Nargiza SHAMSIDDINOVA,*
*8-«D» sinf o‘quvchisi*

## MUTOLAA YOSH TANLAMAYDI



Kitobning inson hayotida tutgan o‘rni beqiyosdir. Mutolaa yosh tanlamaydi. Inson ma’naviyatini boyitishi uchun muntazam ravishda kitob o‘qishi kerak. Kitob o‘qiganda, undagi voqea-hodisalarni tahlil qilib, undan kerakli xulosa chiqarish lozim. Bundan tashqari, kitoblar

3







*Akmal NOSIROV,*
*97-maktabning 7-«A» sinf o‘quvchisi*





*Elina SHARIPOVA,*
*43-maktabning 2-«G» sinf o‘quvchisi*





*Lola KARIMOVA,*
*257-maktabning 6-«A» sinf o‘quvchisi*

14

## ONAGINAM



*Volidam, mehringiz dilimdadir,*
*Nomingiz doimo tilimdadir.*
*Nigohlaringiz mudom yo‘limdadir,*
*Qalbingiz yig‘lamasin, onaginam!*
*So‘zlaringiz purma’no, hikmatga kon,*
*Niyatim – poyingizni o‘payin har on.*
*Ulg‘aygach, bo‘layin men komil inson,*
*Duoga qo‘l oching, onajon!*
*Siz borsiz, dunyoda ezguliklar bor,*
*Onajonim, aslo topmangiz ozor.*
*Sizga to‘lib-toshib yozayin ash’or,*
*Qalbingiz yig‘lamasin, onajon.*

*Shirinxon TOSHXO‘JAYEVA,*
*86-maktab o‘quvchisi*

## SEVIKLI MASKAN



*Maktabimdir eng sevikli maskan,*
*Ilmlar ummoni dilimga payvand.*
*Ustoz misli quyosh, nurin sochmoqda,*
*Ilm sirlarini bizga ochmoqda.*

*Maktabimiz yangi, juda ham ko‘rkam,*
*Sharoitlar bisyor, qulayliklar ham.*
*Bizlardandir talab – izlanish, o‘qish,*
*Yurtim ravnaqiga zo‘r hissa qo‘shish!*

*Sevara RAHIMJONOVA*

6

Yunusobod tumanidagi o‘quvchilar ham ustozlari boshchiligida bu harakatning faol ishtirokchilariga aylandilar. 21-, 80-maktab o‘quvchilari barpo qilgan bog‘lar kishi ko‘zini quvontiradi. Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki tuman o‘quvchilari poytaxtimizning 2200 yilligini minosib kutib olish uchun obodonlashtrish ishlarini yanada jadal sur’atlarda olib bormoqdalar.



## XARXASHA



*Boshlandi to‘s-to‘polon,*
*Marjondek ko‘z yosh to‘kdi.*
*Mashinani parchalab,*
*Ayiqchaga tosh otdi.*

*Avtobusga chiqqanda,*
*Shodlanib, tinim oldi.*
*Xolasi esdan chiqib,*
*Lazizjon uxlab qoldi.*

*– Avo, avo, xo... lajon,*
*Attobusda bolaman.*
*– Aylanayin, men sendan*
*O‘zim xabar olaman.*

***Ma’rifat HAYDAROVA,***
***Toshkent shahridagi 273-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi***

11

yosh avlodni hayotga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi. Ona diyorimizga muhabbat, sadoqat ruhida tarbiyalaydi. XXI asr – texnika asri bo‘lganligi sababli, yoshlar kitob o‘rniga ko‘proq kompyuter bilan mashg‘ul bo‘lmoqdalar. Ustozlarimiz bergan referat mavzularini kitobdan emas, balki kompyuterlardan izlashadi. Lekin kompyuter inson sog‘lig‘iga zarar ekanligiga ko‘pam e’tibor berishmaydi. Kitob esa sog‘lig‘imizga salbiy ta’sir qilmaydi, aksincha, ma’naviyatimizni boyitishga xizmat qiladi.

*Ziyoda SUNNATOVA*

## A’LOCHI QIZ SAODAT



Saodat yoshligidan adabiyot, musiqa, raqs, shu bilan birga, ingliz tili hamda sportga qiziqadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, u 327-maktabning 8-«A» sinfida a’lochi o‘quvchilardan biri hisoblanadi. U ko‘pgina shoirlar ijodi bilan tanishib, o‘zi ham Vatan, ona, ustozlarga atab she’rlar yozib turadi. Yozgan she’rlarini ko‘rgan ona tili va adabiyot o‘qituvchisi Ma’mura Mansurova unga she’r yozish qoidalarini tushuntirib beradi.

Saodat kelajakda huquqshunos bo‘lmoqchi. Ilm olish bilan birga, ijodini ham davom ettirish niyatida. Biz o‘quvchimiz Saodat Qodirovaning doimo a’lochi va iqtidorli o‘quvchilar safida bo‘lishini tilaymiz.

*Sinf rahbari N.ZAYNUTDINOVA*

## «SIZ QONUNNI BILASIZMI?»

Shunday nom ostida o‘tkazilgan respublika tanlovida yurtimizning turli burchaklaridan kelgan ko‘plab iqtidorli bolalar qatnashgan. Tanlovda qatnashgan tumandagi 17-maktabning «Femida» jamoasi respublikada eng kuchli jamoa ekanligini namoyon etib, birinchi o‘rinni egalladi.



4

xapqirib, ko‘ksimiz iftixorga to‘lishi shubhasiz.

Ana endi shohsupada turgan g‘olibning holatini bir tasavvur qiling. Tinimsiz qilingan mehnatning mevasi naqadar totli. Lekin bunga erishishning o‘zi bo‘lmaydi. Tinimsiz mehnat va fidoyilik bilan yutuqlarga erishiladi.

Tengdoshimiz Dilmurod Azimov ham qat’iy orzular sari dadil odimlab borayotgan yosh bokschilardan. Dilmurod ustozi Shavkatxo‘ja aka Farhodxo‘jayevdan boks sirlarini qunt bilan o‘rganmoqda. Bugungi kungacha shahar chempioni, respublika chempionati ishtirokchisi va xalqaro turnirda ikkinchi o‘rinni egallashga musharraf bo‘ldi. Biz umidli bokschini bir kun kelib jahon chempioni va Olimpiada o‘yinlari g‘olibi bo‘lishiga ishonamiz.

## SINFDOSHLAR ORZUSI



Har gal yurtboshimiz kelajak bizning qo‘limizda ekanligini ta’kidlaganlarida, men yaxshi o‘qib, eng namunali o‘quvchi bo‘lgim keladi. Behuda o‘tkazgan ba’zi vaqtlarimga achinib ketaman. Chunki ona yurtiga munosib farzand bo‘lish darkorligini bobolarimiz ko‘p ta’kidlashgan. Yaqinda maktabimizda Navoiy bobomiz tavalludiga bag‘ishlab o‘tkazilgan tadbirdan ham bildikki, faqat bilimlargina kelajakda komil inson bo‘ladi. Va ajdodlarimiz kabi xalqiga nafi tegadi. Shuning uchun biz sinfdoshlarim bilan doim yaxshi kasb egalari bo‘lib, yurtimiz taraqqiyotiga hissa qo‘shishni orzu qilamiz. Ustozimizning eng ezgu tilaklari ham shu!

*Zilola SUNNATOVA,*
*272-maktabning 8-«A» sinf o‘quvchisi*

13

## Buloq



Sizib oqib chiqar suv
Buloq teshiklaridan.
Kelar ekan bu suvlar
Jannat eshiklaridan.
Qancha ko‘p bo‘lsa hamki,
Uni asramoq darkor.
Bu hayotbaxsh ne’matning
Shaksiz uvoli ham bor.



*Ziyod ABDURAHIMOV,*
*274-maktabning*
*7-«B» sinf o‘quvchisi*

## VATAN



O‘zga yurtlarda sog‘inib
Tuprog‘ingni o‘pdim, Vatan.
Senga zarur bo‘lsa agar,
Fido bo‘lsin bu jon-u tan.
Subhidamda shabbodang-la,
Gul ifori yeladi.
Doning yegan chumchuq hatto,
Makkadan ham keladi.
Quchog‘ingda yayrab o‘sib,
Men kamolga to‘layin.
Sening madhing kuylaguvchi,
Shoira qiz bo‘layin.

*Shahzoda ABDUVOSIQOVA,*
*272-maktabning*
*8-«A» sinf o‘quvchisi*

5

## Samoga intilganlar



Yunusobod tuman o‘quvchilar ijodiyot markazi hamisha bolalar bilan gavjum. Bu yerda bolalar bir necha sohalar bo‘yicha tajribali murabbiylardan puxta bilim olmoqdalar. Bu borada aviamodelchilik to‘garagi a’zolarining yutuqlari beqiyos. Ayniqsa, 9-maktabning 8-sinf o‘quvchisi Ilyos Azimovning aviamodelchilik sohasida qo‘lga kiritayotgan yutuqlari ko‘pchilikni quvontirmoqda. Sport ustaligiga nomzod yosh sportchi ustozi G‘ayrat aka Kalonov ishonchini oqlab, shahar va respublika musobaqalarida sovrundorlar safidan munosib o‘rin oldi.

Shunisi e’tiborliki yaqindan boshlab tuman maktablarida yana bir xayrli ishga qo‘l urildi. Har bir maktabda mehnat va fizika fani ustozlari rahbarligida xalq amaliy hunarmandchiligi va texnik to‘garaklar ham faoliyat boshladi.

## OLIMP SARI YO‘L



Bugungi kunda bolalar sporti respublikamizda keng miqyosda rivojlanib bormoqda. Sportchilarimiz jahon chempionatlari va Olimpiada o‘yinlarida g‘alabaga erishib, yurt bayrog‘ini ko‘klarga ko‘tarmoqdalar. Ularning sharafiga mamlakatimiz Gimni yangragan chog‘da, yuragimiz

12

*«Quloq cho'zma»*

# QO'RQMAS BAHODIR

**Bolalar, xabaringiz bor, 2012-yili Londonda XXX yozgi olimpiya o'yinlari bo'lib o'tadi. Bu nufuzli musobaqaga hali to'rt yil fursat bo'lsa-da, sportchi aka-opalaringiz o'z murabbiylari yordamida yaxshi niyatlar bilan reja asosida nufuzli musobaqaga allaqachon tayyorgarlikni boshlab yuborishgan.**

Gabit Esinbetov Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanining Abay qishlog'ida tug'ilgan. Abayliklar Gabitjon bilan behad faxrlanishmoqda. U Tailandning Bangkok shahrida dzyudo bo'yicha o'smirlar o'rtasidagi jahon chempionatida 60 kg. gacha bo'lgan vazn toifasida bronza medalini qo'lga kiritdi.

Ilk marotaba jahon chempionatida gilamga chiqqan Gabit akangiz dunyoning 88 ta davlatidan 500 nafardan oshiq polvonlar orasida g'olib bo'lganida, quvonchi cheksiz edi. Chunki Bangkokka kelgan xitoylik, vetnamlik va italiyalik kurashchilar bilan bellashib, yarim finalga chiqishning o'zi bo'lmadi. Ammo jahon chempionatining yarim finali Gabit Esinbetovga uchinchi o'rinni loyiq ko'rdi.

Hozir chempion murabbiylari Farhod To'rayev, Ernest Danilyan, Iskandar Rasulov bilan yangi musobaqalarga tayyorgarlik ko'rmoqda.

Sportdagi dastlabki dzyudo saboqlarni Abayda boshlagan Gabitjon birinchi murabbiyi Begali Jumaqulovdan minnatdor bo'lmoqda. Shu kungacha Gabit 1989-90-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida respublika chempioni, 2006-yili Qarshi shahrida o'tgan «Umid nihollari» sport musobaqasining kurash bahslarida oltin, 2008-yil Nukusda bo'lib o'tgan «Barkamol avlod» bellashuvlarida kumush medalga sazovor bo'ldi. U ayni kunda Chirchiq olimpiya zahiralari kollejining kurash bo'limida 3-bosqichida tahsil olyapti. O'zbekning dovrug'li polvoni Abdulla Tangriyevga havas qiladi. Abdulla-polvondek bo'lishga, uningdek olimpiya o'yinlariga yo'llanma olishga intilmoqda.

# BOG'CHADA NIMA O'YNAYAPMIZ?



– Mufassal opa, yana «Quloq cho'zma» o'ynaylik.

– Yo'q, yo'q, «Zuvillatish» o'yinini o'ynaymiz, – deydi biri olib, biri qo'yib bolajonlar chug'urlashib.

Jizzax shahridagi 8-son «Nihol» nomli maktabgacha ta'lim muassasasida bo'lganimizda, u yerda tarbiyalanayotgan jajjilarning jismoniy tarbiya darsini juda yaxshi ko'rishlariga guvoh bo'ldik.

Bu muassasada ayni kunda yuzlab kichkintoylar ta'lim-tarbiya olmoqdalar.

Xalq ta'limi a'lochisi, oliy toifali pedagog Dilorom opa Obidova rahbarligidagi maskanda o'z kasbini sevadigan, izlanuvchan va bolalarga mehribon ustozlar ko'p. Boshlang'ich sinf xonasiga yaqinlashar ekanmiz, bolalarning quvnoq kulgisidan yayrab ketdik. Bir lahza bolalikka qaytib, ularning «Quloq cho'zma» o'yinini miriqib tomosha qildik.

Ko'plab xalq o'yinlari qatori «Quloq cho'zma» o'yinining ham o'ziga xos ahamiyati katta. Bu o'yinda chiniqqan bolalar bir-birini tushunib, epchil va chaqqon bo'lib voyaga yetadilar.

«Nihol»da bundan tashqari, «Zuvillatish», «Kim epchil va chaqqon», «Kichkina demang bizni...» kabi milliy harakatli o'yinlarimizni mehr bilan o'rgatayotgan ustozlarga havasimiz keldi.

Shu boismikan, Nigina, Siroj, Shahnoza kabi bog'cha tarbiyalanuvchilari milliy kurash, shaxmat- shashka va taekvando musobaqalarida viloyat sovrindorlari safidan o'rin olishgan.

Yana shuni ham alohida ta'kidlab o'tmoqchi edikki, «Nihol»ning sport maydonchasi – eng yaxshi o'yingoh» respublika tanlovida, «Bola shaxsini rivojlantiruvchi o'yin va o'yingohlar» tanlovida g'olib chiqqan. Hamda Xalq ta'limi vazirligining «Faxriy yorlig'i», qimmatbaho sovg'alari va birinchi darajali diplomini qo'lga kiritgan.

*Yong'oq kattaligidagi tugunchani tarbiyachi bolalar o'rtasiga tashlab beradi. Tugunchani chaqqonlik bilan egallab olgan bola o'yinboshiga tugunchani epchillik qilib yetkazadi. U shundagina sovrindor bo'ladi. Tuguncha bilan o'yinboshi tomonga yugurayotgan bolani raqibi ushlab olsa, tugunchani qo'lga kiritish uchun uni qulog'ini cho'za boshlaydi. Qo'lga tushgan bola tugunchani o'yinboshi yoki o'ziga yaqin o'rtog'iga uloqtiradi. O'rtog'i esa tezlik bilan chap berib, jonli devorlardan o'tib, o'yinboshiga yetkazsagina, g'olib bo'ladi. Bordi-yu, yo'li to'silib qolsa, u ham tugunchani o'rtog'iga oshiradi.*

*Shu tariqa o'yin zavq-shavq bilan davom etadi.*

Katta taassurotlar bilan maktabgacha tarbiya maskanidan qaytar ekanmiz, bolajonlarning o'z udumlarimizga, qadriyatlarimizga munosib voris bo'lib o'sayotganliklarini his etib, ko'nglimiz tog'dek ko'tarildi.

***Abdulla ota SAIDOV***

# SPORT-TEST

***1. Yulduz Hamroqulova qaysi sport turi bo'yicha shug'ullanadi?***

A) tennis;
B) taekvando;
D) shaxmat;
E) shashka.

***2. Professional boksga necha yoshdan ruxsat beriladi?***

A) 20;
B) 16;
D) 17;
E) 18.

***3. Pekinda nechanchi Olimpiada o'yinlari bo'lib o'tdi?***

A) XXX;
B) XVIII;
D) XXXI;
E) XXIX.

***4. Boks anjomini ko'rsating?***

A) raketka;
B) qo'lqop;
D) koptok-shar;
E) darvoza.

***5. «Olimpiada – 2008» o'yinlarida hamyurtlarimizdan oltin medalga erishgan sportchi?***

A)Artur Taymazov;
B) Abdulla Tangriyev;
D) Soslan Tigiyev;
E) Rishod Sobirov.

***Sahifani G'OLIBA tayyorladi***

*Gazetamizning 80 yillik yubileyi yaqinlashgani sari tahririyatimizga kelayotgan mehmonlar soni ortgandan-ortib boryapti. Mehmonlarning aksariyati mana shu tahririyatda mehnat qilgan insonlar bo'lib, qay birlari yozma, boshqalari og'zaki tarzda xotiralari bilan o'rtoqlashyaptilar.*

*Kuni kecha gazetaga 1959-yildan 1984-yilgacha muharrirlik qilgan Suhrob aka Yo'ldoshev yana o'z xotiralaridan so'zlab berdilar:*

*Bolalarning sevimli shoiri, marhum ustozimiz Po'lat Mo'min ham qiziqarli bir voqeani so'zlab bergandilar:*



– G'ani Jahongirovning ajoyib bir odati bor edi. Gazetaning kelgusi sonlari muhokama qilinayotganda, kim qanday mavzuni yoritishni tavsiya qilsa, uni amalga oshirishni o'sha xodimning zimmasiga yuklab qo'yardi. Shuning uchun men: «Agar bajarilishi o'zimga yuklatilmasa, quyidagi mavzuni taklif qilaman», deya muharrirning va'dasini olgach, keyin fikrimni aytardim, deya shu yerda ham G'ani akaga gapini tasdiqlatib olgandi.

# BIR PIYOLA CHOY

– Tahririyatimizda yaxshi bir an'ana bo'lardi: har yili gazetaning birinchi soni chop etilgan kunni bir piyola choy ustida nishonlardik. Yodimda bor, 1964-yil 1-avgustdagi uchrashuvimizga gazetaning sobiq muharrirlaridan Hikoyat Hasanova, Yo'ldosh Shamsharov, Umar Xo'jayev, Sanjar Tilla, G'ani Jahongirov, sobiq mas'ul kotiblardan Yoqubjon Shukurov, Vahob Ro'zimatovlar kelishgandi. Hikoyat opa gazetaning respublika bolalari hayotida tutgan o'rni haqida, mamlakatda savodsizlikni tugatish uchun kurashda faol qatnashgani, shahar maktab o'quvchilarining qishloq maktablari o'quvchilarini otaliqqa olib, ularga kitoblar, o'quv qurollari jo'natib turishgani va bu ishlarda gazetaning tashabbuskor bo'lgani haqida gapirib bergandi. Turli yillarda gazetaga muharrirlik qilgan yozuvchi Sanjar Tilla, Umar Xo'jayevlar bolalikdanoq bu gazetaning eng faol muxbirlaridan bo'lganliklarini so'zlab berishdi.

– Mening gazetaga muharrirlik qilgan davrim (1940-1941-y.y) suronli urush yillariga to'g'ri kelgandi, – deya xotirlagandi Umar Xo'jayev. – Shu munosabat bilan 1941-yilda gazetaning chiqarilishi to'xtatilgandi. Uning oxirgi soniga imzo chekyapman-u, qo'llarim qaltirab, yuragimda dushmanga nisbatan qahr-g'azab tuyg'ulari jo'sh urgandi...

Shu uchrashuvga sevimli shoirimiz G'afur G'ulom ham taklif etilgandi. Lekin u kishi kela olmasligi uchun uzr so'rab, quyidagi mazmunda xat yozib yuboribdi:

## YOZGANIM–YOZGAN

Men uyimda bu gazeta o'quvchilari bo'lmagan kuni unga yozishdan to'xtasam kerak. Avval bolalarim bu gazetani o'qish yoshida edi. Hozir nevaralarim shu yoshga yetishdi. Keyin evaralarim o'qishadi, albatta. Hayot abadiy bo'lganidek, insonning nasli ham abadiydir. Ular ketma-ket kelaveradi. Men yozaveraman.

Men, avvalo bolalar deganimda, o'z bolalarimni o'ylaganim yo'q. Butun respublikamizni o'ylayapman. Chunki respublikamizni o'z oilam, deb respublika bolalarini o'z bolalarim, deb bilaman. Demak, ular uchun yozganim-yozgan...

Gazetamizning bir sonida «pomidor» so'zining «pamidor» tarzida ketib qolganini payqagan shoirimiz G'afur G'ulomning: «Bu gazetani bolalar o'qishadi, shuning uchun undagi har bir so'z, har bir ibora bexato, to'g'ri yozilgan bo'lishi kerak», deya tahririyatimizga qo'ng'iroq qilganidan ham uning eng faol muxbirlarimizdan bo'lganligini bilish mushkul emas.

*Suhrob YO'LDOSHEV*

# LINVORD

| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Olov qol-dig'i | Ho'l meva | Quyma andaza | Choy navi | Suv bilan o'ral-gan yer | Beg'u-bor, toza | Zarbli asbob | Sal-moq-dor | Futbol jamoa | Bilim sohibi | Vilo-yat mar-kazi |

| | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Sopol buyum hunar-mandi | So'z ko'rki | Harir tola | Ishning rivoji | Qimmat-baho metall | Kela-jak | Naz-miy asar turi | Bolgari-yadagi shahar | Tabiatni o'rga-nish, sayohat | Shoh va shoir | Bino-korlik ash-yosi |

*Foziljon ORIPOV tuzdi*

## SHUNDAY LUG'AT




Aziz bolalar!

Turli nashriyotlar, zukko nashrlar sizlar uchun yangi-yangi kitoblarni chiroyli muqovalarda chop etib, yetkazib berishyapti. Biz ularga sizlarning nomlaringizdan rahmatlar aytamiz.

Ko'p til bilish insonga katta foyda keltiradi. Avvalambor, ona tilini mukamml o'rganish esingizdan chiqmasin. Til o'rganishda lug'at sizga eng yaxshi yordamchi hisoblanadi. Ana shuni hisobga olgan «Yangi asr avlodi» nashriyoti «Ingliz-o'zbekcha lug'at»ni chop etgan edi. Lug'at kitobchani cho'ntakda bemalol olib yurishingiz mumkun. O'z ona tilimizni va inglizchani qiyosiy o'rganayotgan bolalarning shu lug'atdan foydalanganlari ma'qulroq, deb o'ylaymiz.

## XANDALAR

– **O'g'lim, nega qulog'ingga paxta tiqib olding?**
– **O'qituvchimiz: «Gapim bu qulog'ingdan kirib, u qulog'ingdan chiqib ketyapti, paxta tiqib ol!» dedilar.**

* * *

– **Oyijon, menga bir so'm bering!**
– **Qog'oz bir so'mmi yo tanga beraymi?**
– **Yo'qotib qo'ymasin desangiz, tangani qog'oz bir so'mlikka o'rab bering.**

*Salomatlik burchagi*

## O'T PUFAGIDAGI TOSHLAR

Inson organizmidagi o't pufagi muhim a'zolardan biridir va uning vazifasi yeyilgan ovqatlarni parchalab berishdir. Ko'pincha o't pufagini yallig'lanishi uning faoliyatini buzadi va qum, toshlar paydo bo'lishiga olib keladi.



Oxirgi vaqtda bu xastalik ancha yosharib ketdi, bunga misol: 5-10 yoshdagi bolalarda o't pufagida qum va toshlar aniqlanmoqda.

Bu xastalikni oldini olishda ovqatlanish tizimini to'g'rilash va har xil achchiq, nordon, dudlangan oziq-ovqatlarni kam iste'mol qilish kerak. Kechqurun yog'li palovni yeb, divanda, televizor oldida qimir etmasdan 5-6 soat o'tirish tavsiya etilmaydi, chunki bunda o't pufagini faoliyati buziladi va kasallik paydo bo'ladi.

*Tohir IBRAGIMOV, oliy toifali shifokor*

Tong YULDUZI
Vatan yagonadir, Vatan bittadir!
O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

BOSH MUHARRIR: To'lqin HAYITOV

Muassislar:
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizayner va sahifalovchi: Zuhra MUHSIMOVA
Navbatchi: Feruza SOYIBJON qizi

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA (Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:
700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks: (99871) 244-38-10

Rassom: Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 68773
Buyurtma N: J 6915